



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№4**

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2026-yil, aprel.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyea Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI .....	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIVAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI .....	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizayov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMINI MOLIVAYLASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI .....	64
Namazov Gafur Shokulovich	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI .....	69
Beglayev Uchqun Xurramovich	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI .....	75
Musulmonova Shahlo Nasriddinova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI .....	81
Artikova R.A.	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILIYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
Ibragimov G'anjion G'ayratovich	
STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN.....	93
Axliddin Aroptdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	99
Айматова Фарида Хуразовна	
KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	107
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	
DEHQON XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA KREDITLAR MIQDORINI DIFFERENSIYALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR .....	113
Xakimov Zafar Ibragimovich	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI .....	118
Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUDUDIIY MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	124
Muhammadieva Nodira	
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUDUDIIY RIVOJLANISHNI STATISTIK HISOBLASH METODOLOGIYASINI QAYTA BAHOLASH MEZONLARI (SCOPUS VA WEB OF SCIENCE DA INDEKSLANGAN ILMIY NASHRLAR TAHLILI ASOSIDA).....	131
Santjar Abdumurodovich Sattorov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY-IQTISODIY OMILLARI VA ISTIQBOLLARI .....	139
Allamuratova Perida Maxsetbaevna	



XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI .....	144
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna, Yarmetova Nargiza Shiximbayevna	
AHOLINI IJTIMOIIY TA'MINOT TIZIMINING TAMOIYILLARI VA UNING MOLIYAVIIY MEXANIZMLARI .....	148
Xusanov Baxodir Sheraliyevich	
MAHALLIIY VA XALQARO TURIZM BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI, TAMOIYILLARI VA MEXANIZMLARI .....	152
Alikulov Samar Abdurashidovich	
TRANSPORT XIZMATLARINING SOHALAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TASNIFI .....	159
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
RAQAMLI TO'LOVLAR VA O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGI .....	165
Ruziyeva Barno Yadgarovna	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA TO'LOV XIZMATLARINI RAQAMLI MOLIYAVIIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....	168
Maxmudov Boburbek Axmedjan o'g'li	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ .....	172
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
MAJBURIY IJRO HARA KATLARINI RAQAMLASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	177
Matmuratova Nasiba Azatovna	
OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLAR TAHLILI .....	181
Pulatov Abdulla	



# OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLAR TAHLILI



**Pulatov Abdulla**

Namangan davlat texnika universiteti  
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası assistent o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oziq-ovqat sanoatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini cheklovchi asosiy omillar kompleks ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda kichik biznes korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy barqarorligi, texnologik darajasi hamda marketing faoliyati bilan bog'liq muammolar ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, infratuzilma yetishmovchiligi, xomashyo bazasining barqaror emasligi, innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi to'siqlar hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarli darajada samarali ishlamasligi kabi omillar chuqur tahlil qilingan. Maqolada iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshlik darajasiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida oziq-ovqat sanoatida kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlash va ularning raqobat ustunligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** raqobatbardoshlik, kichik biznes, oziq-ovqat sanoati, ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy barqarorlik, innovatsiyalar, texnologik rivojlanish, marketing strategiyasi, infratuzilma, xomashyo ta'minoti, davlat qo'llab-quvvatlashi, iqtisodiy tahlil.

**Abstract.** This article presents a comprehensive analysis of the key factors limiting the competitiveness of small businesses operating in the food industry. The study scientifically examines issues related to production efficiency, financial stability, technological level, and marketing activities of small enterprises. It also analyzes factors such as inadequate infrastructure, instability of the raw material base, barriers to the adoption of innovative technologies, and the insufficient effectiveness of state support mechanisms. The article explores the interrelationship between internal and external factors affecting the competitiveness of small businesses based on economic indicators. Based on the findings, scientific and practical recommendations have been developed to ensure sustainable development and enhance the competitive advantages of small businesses in the food industry.

**Key words:** competitiveness, small business, food industry, production efficiency, financial stability, innovation, technological development, marketing strategy, infrastructure, raw material supply, state support, economic analysis.

**Аннотация.** В данной статье проведён комплексный анализ основных факторов, ограничивающих конкурентоспособность малых предприятий, функционирующих в пищевой промышленности. Исследование на научной основе охватывает проблемы, связанные с эффективностью производства, финансовой устойчивостью, технологическим уровнем и маркетинговой деятельностью малых предприятий. Также подробно анализируются такие факторы, как недостаточность инфраструктуры, нестабильность сырьевой базы, барьеры при внедрении инновационных технологий, а также недостаточная эффективность механизмов государственной поддержки. В статье рассматривается взаимосвязь внутренних и внешних факторов, влияющих на уровень конкурентоспособности малых предприятий, на основе экономических показателей. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на обеспечение устойчивого развития малых предприятий пищевой промышленности и повышение их конкурентных преимуществ.

**Ключевые слова:** конкурентоспособность, малый бизнес, пищевая промышленность, эффективность производства, финансовая устойчивость, инновации, технологическое развитие, маркетинговая стратегия, инфраструктура, сырьевое обеспечение, государственная поддержка, экономический анализ.





## KIRISH

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy raqobat kuchayib borayotgan sharoitda kichik biznes subyektlarining, ayniqsa oziq-ovqat sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois mazkur sohada kichik biznesning samarali faoliyat yuritishi va ularning raqobatbardoshligini ta'minlash masalalari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish hamda raqobatbardoshligini mustahkamlashga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, PF-158-sonli Prezident farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan, oziq-ovqat sanoatida innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash va ularning raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur strategiya doirasida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, PQ-216-sonli Prezident qarori orqali kichik biznes subyektlari uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu hujjatlar kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan birga, ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda [3].

Shu bilan birga, oziq-ovqat korxonalarida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatuvchi ayrim omillar ham mavjud bo'lib, ular qatorida texnologik yetishmovchilik, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, marketing strategiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xomashyo ta'minotidagi uzilishlar hamda infratuzilma bilan bog'liq masalalar muhim o'rin egallaydi. Ushbu omillarni chuqur tahlil qilish va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati va kichik biznes raqobatbardoshligi masalasi tobora ko'proq amaliy boshqaruv, marketing, investitsiya va raqamli transformatsiya nuqtayi nazaridan yoritilmoqda. Masalan, Muxtorova oziq-ovqat sanoatini mamlakat iqtisodiyotining strategik bo'g'ini sifatida baholab, tarmoq rivojida ishlab chiqarish hajmi, qayta ishlash darajasi, logistika hamda bozor infratuzilmasi hal qiluvchi omillar ekanini ta'kidlaydi. Uning ishida tarmog'ni rivojlantirish uchun modernizatsiya, xomashyo bazasini mustahkamlash va marketing faoliyatini kuchaytirish zarurligi ilgari suriladi [4].

Boyqobilov esa kichik va o'rta oziq-ovqat korxonalarida marketing tadqiqotlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi korxonalarning bozorni chuqur anglash imkoniyatlarini cheklashi, natijada ularning raqobatbardoshlik darajasiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. Kurbanova raqamli iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat tarmog'ida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun risk-menejment, data-driven qarorlar hamda zamonaviy kadrlar boshqaruvi muhim ahamiyat kasb etishini asoslaydi [5].

Yana bir qator yangi mahalliy tadqiqotlarda oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda investitsion muhitni yaxshilash, klasterlashuvni rivojlantirish, ekologik toza ishlab chiqarishni kengaytirish hamda raqamli innovatsiyalarni joriy etish muhim yo'nalishlar sifatida ko'rsatilgan.

Xorijiy adabiyotlarda esa mazkur mavzu yanada aniq indikatorlar va zamonaviy boshqaruv vositalari orqali o'rganilgan. Keelson rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda bozor raqobati kuchaygan sari SMElar uchun jarayon innovatsiyasi qo'shimcha omil emas, balki natijadorlikni barqaror saqlashga xizmat qiluvchi muhim vosita ekanini ta'kidlaydi [6]. Mayho Uels oziq-ovqat sektori misolida "triple helix" - davlat, universitet va biznes hamkorligi - past texnologiyali food SMElar uchun barqaror raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qilishini asoslaydi [7].

Meier esa raqamli transformatsiya SMElar raqobatbardoshligini tushuntirishda markaziy omillardan biri sifatida shakllanib borayotganini ko'rsatib, uni ko'p darajali tahlil obyekti sifatida talqin qiladi [8]. Shuningdek, 2025-yilda o'tkazilgan sistematik sharhlarda food SMElar muvaffaqiyati uchun innovatsiya, barqarorlik, lean-operatsiyalar, bozor yo'naltirilganlik, xizmat sifati va tashkiliy samaradorlik asosiy KPilar sifatida ajratilgan. Green innovation yo'nalishidagi tadqiqotlar esa texnologik salohiyat va ekologik yondashuv uzoq muddatli raqobat ustunligini mustahkamlashini ko'rsatadi [9].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ushbu yondashuvlarga tayangan holda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-mantiqiy yondashuv hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalaniladi. Metodologik jihatdan oziq-ovqat korxonalarning raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar to'rt guruhga ajratib o'rganiladi: ishlab chiqarish-





texnologik, moliyaviy-investitsion, marketing-logistika va institutsional-boshqaruv omillari. Mazkur yondashuv maqola mavzusini zamonaviy ilmiy qarashlar asosida ochib berishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshib bormoqda, shu bilan birga, tarmoqda ayrim tizimli masalalar hamon dolzarbligicha qolmoqda. 2023–2024-yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda oziq-ovqat sanoati umumiy sanoat ishlab chiqarishining qariyb 18–20 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining ushbu tarmoqdagi ulushi 70 foizdan yuqori bo'lib, bu ularning iqtisodiyotdagi muhim o'rnini tasdiqlaydi. Biroq yuqori ulushga qaramay, ularning raqobatbardoshligi ishlab chiqarish samaradorligi, texnologik daraja va eksport salohiyati nuqtayi nazaridan yanada rivojlantirishni talab etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligi ko'p hollarda energiya sarfining nisbatan yuqoriligi, asosiy vositalarning eskirganligi hamda innovatsion texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi bilan bog'liq. Masalan, 2024-yilda kichik oziq-ovqat korxonalarida asosiy fondlarning eskirish darajasi o'rtacha 45–50 foizni tashkil etgani aniqlangan. Bu esa mahsulot tannarxining oshishiga va natijada bozordagi raqobatbardoshlikka ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

Moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili ham ayrim muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, kichik biznes subyektlarining aylanma mablag'lari yetarli darajada shakllanmaganligi hamda kredit resurslariga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi ularning ishlab chiqarish hajmini kengaytirish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatmoqda. 2024-yilda kichik oziq-ovqat korxonalarining atigi 32 foizi bank kreditlaridan faol foydalangan, qolganlari esa asosan o'z mablag'lari hisobiga faoliyat yuritgan [10].

Quyidagi 1-jadvalda oziq-ovqat sanoatida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini aks ettiruvchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar keltirilgan.

1-jadval. Oziq-ovqat sanoatida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Sanoatdagi ulushi (%)	68,5	70,2	71,8
Rentabellik darajasi (%)	12,4	11,8	10,9
Eksport ulushi (%)	15,2	16,7	17,5
Asosiy fondlar eskirish darajasi (%)	42,0	46,3	49,5
Kreditlardan foydalanish darajasi (%)	28,0	30,5	32,0

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida ko'rish mumkinki, kichik biznesning tarmoqdagi ulushi oshib borayotgan bo'lsa-da, rentabellik darajasida ma'lum pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarining ortib borayotgani va samaradorlikning kutilgan darajada oshmayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, asosiy fondlarning eskirish darajasi yil sayin ortib borayotgani texnologik yangilanish zarurligini anglatadi.

Marketing va logistika tizimlari ham raqobatbardoshlikka bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Tahlillarga ko'ra, kichik oziq-ovqat korxonalarining 60 foizdan ortig'ida zamonaviy marketing strategiyalari (raqamli marketing, brending, eksport marketingi) yetarli darajada joriy etilmagan. Bu esa mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlarda samarali realizatsiya qilinish imkoniyatlarini ma'lum darajada cheklaydi.

Olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoatida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi ko'p jihatdan tizimli va o'zaro bog'liq omillar ta'sirida shakllanadi. Xususan, ishlab chiqarish samaradorligining nisbatan pastligi hamda asosiy fondlarning yuqori darajada eskirganligi texnologik modernizatsiya zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu holat nafaqat mahsulot tannarxining oshishiga, balki sifat ko'rsatkichlariga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatib, bozordagi raqobat ustunligini cheklashi mumkin [11].

Shuningdek, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatni kengaytirishiga to'siq bo'lib xizmat qilmoqda [12]. Kreditlash tizimidagi ayrim murakkabliklar, nisbatan yuqori foiz stavkalari va garov talablari tadbirkorlarning investitsion faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi



omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, marketing faoliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda samarali joylashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, unda texnologik yangilanish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, logistika infratuzilmasini rivojlantirish hamda zamonaviy marketing strategiyalarini joriy etish o'zaro uyg'un holda amalga oshirilishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi mamlakat iqtisodiy barqarorligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu tarmoqda kichik biznes ulushining ortib borayotgani ijobiy tendensiya sifatida baholanadi, shu bilan birga, ularning real raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash zarurati mavjudligi aniqlanadi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, ishlab chiqarish samaradorligining nisbatan pastligi, asosiy fondlarning eskirganligi, innovatsion texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi hamda moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi kichik biznes subyektlarining rivojlanish sur'atlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, marketing strategiyalarining yetarli darajada shakllanmaganligi, logistika tizimidagi ayrim kamchiliklar va xomashyo ta'minotidagi uzilishlar ham korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Natijada mahsulot tannarxi ortib, sifat va eksport salohiyatini yanada oshirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu esa ichki va tashqi bozorlarda raqobat ustunligini mustahkamlashni talab etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish bir yoqlama emas, balki kompleks yondashuvni talab etadi. Xususan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda marketing va logistika tizimlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, oziq-ovqat sanoatida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan taklif etilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiyotda yuqori qo'shimcha qiymat yaratish hamda milliy bozor va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston respublikasi qonunchilik ma'lumotlar milliy bazasi(lex.uz).
2. Rasulova, D., Xotamov, I., & Asatullayev, X. (2018). Biznesni tadqiq etish usullari. Ma'ruzalar matni-T.: TMI, 216.
3. Bulturbayevich, M. B., & Tursunbayevich, F. U. (2025). Kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish. Marketing Jurnal, (4).
4. Ibrohimov, B. (2024). Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlari duch keladigan muammolar tahlili. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(12).
5. Biryukov, V. V., Romanenko, E. V., Ploskonosova, V. P., Bagno, I. G., & Kalashnikova, Y. V. (2015). Small businesses in the context of innovation competition. International Journal of Economics and Financial Issues, 5(4), 989-994.
6. Farhikhteh, S., Kazemi, A., Shahin, A., & Mohammad Shafiee, M. (2020). How competitiveness factors propel SMEs to achieve competitive advantage?. Competitiveness Review: An International Business Journal, 30(3), 315-338.
7. Sipa, M. (2017). Innovation as a key factors of small business competition. European Journal of Sustainable Development, 6(1), 344-344.
8. Salomov, O. (2026). Qishloq joylarda kichik biznesni rivojlantirishning asosiy muammolari va imkoniyatlari. Экономика и социум, (1-1 (140)), 401-406.
9. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari(stat.uz)
10. Ibrohimov, B. (2024). O 'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyatning ahamiyati va o'rni.
11. Yuldashev, D. (2025). Kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari. Muhandislik va iqtisodiyot, 3(12).



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 4

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---